

ISPAN VA O'ZBEK TILLARIDA KALAMBURNING TUZILISHI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Boburjon KADIROV

Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi muhandisi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

ОСОБЕННОСТИ И СОСТАВЛЯЮЩИЕ КОМПОНЕНТЫ КАЛАМБУРА НА ИСПАНСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Бобуржон КАДИРОВ

Инженер отдела научных исследований, инноваций и подготовки научно-педагогических кадров
Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан

PECULARITIES OF KALAMBUR IN SPANISH AND UZBEK LANGUAGES

Boburjon KADIROV

Engineer of the department of scientific research, innovation and training of scientific and pedagogical staff
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan lala_03@bk.ru

UDC (UO'K, УДК): 82-845

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Kadirov B. Ispan va o'zbek tillarida kalamburning tuzilishi va uning o'ziga xos xususiyatlari // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 6 (53). — B. 297-306.

<https://doi.org/10.36078/17043600091>

Received: October 28, 2023

Accepted: December 17, 2023

Published: December 20, 2023

Copyright © 2023 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. Dunyoning ko'plab xalqlari va millatlari orasida doim qaysi til boy, muloqot va ijodiy imkoniyatlari kengligi haqida bahs-munozaralar to'xtamagan. Turli xalq va millat o'z ona tili boyligini namoyish qilish uchun, odatda, shu tilda paydo bo'lgan ijod namunalarini ko'rsatishga intiladi. Aytish joizki, tilning boyligi, moslashuvchanligi hamda shu tilda muloqot qiluvchi xalqning o'tkir zehniligi yoki ushbu tilning madaniyati haqida shu jamiyatdagi hajviy janrlarni tahlil qilish orqali tasavvur hosil qilish mumkinligi to'g'risida bahs va munozaralar olib boriladi. Aynan tilning moslashuvchanligi, turli ma'no ekvivalentlarga boyligi hamda kontekstida urf-odat, madaniyatni aks ettiruvchi janrlardan biri bu kalambur janridir. Shu bilan bir qatorda, bir qancha tadqiqotchilar tomonidan kalambur va so'z o'yinini sinonim deb hisoblash borasida turli xil fikr mulohazalar mavjud. Albatta, kalamburning etimologiyasi, kelib chiqish tarixi bahs-munozarali savol. Shunday ekan, tarixda kalambur so'zining to'g'ri yozilishi bo'yicha bir necha xil turlarni tahlil qilish mumkin. Bundan tashqari, ushbu so'zni bir nechta mamlakatlardagi shaharlar nomi bilan bog'laydigan bir qator tarixiy latifalar ham mavjudligi kalamburning qanchalik tilda faol aks ettirilishini belgilab beradi. Shu tariqa, ushbu maqolada ispan va o'zbek tillarida kalambur atamasining tuzilishi, atama sifatida yuzaga kelishi va insoniyat undan aktiv foydalanishining asosiy sababalari, kalambur etimologiyasi hamda o'ziga xos xususiyatlari haqida ilmiy qarashlarimiz aks etgan.

Kalit so'zlar: til; muloqot; kalambur; kontekst; polisemiya; hajv; hajviy janr; ikki til madaniyati; omograf; omofon; paronomaziya; ksenomorf.

Аннотация. Споры о языке, который наиболее способствует общению и творчеству среди различных народов и наций мира, продолжаются. Многие этнические группы и страны пытаются подчеркнуть разнообразие своего оригинального языка, обычно демонстрируя обнаруженные в нем примеры художественного выражения. Важно отметить, что ведутся споры и разговоры относительно разнообразия и интеллекта тех, кто на нем говорит, богатства языка и возможности сделать какие-то выводы о культуре языка путем изучения поджанров юмора в этом обществе. Каламбуры — один из жанров, который лучше всего отражает универсальность языка, разнообразие значений, которые он может передавать, а также контекст традиций и культуры. Кроме того, среди ученых существуют разные мнения по поводу классификации каламбура. Конечно, ведутся споры о происхождении каламбура. В результате можно изучить различные исторические случаи правильного написания слова каламбур. Более того, степень, в которой каламбур активно представлен в языке, определяется множеством исторических повествований, связывающих это слово с названиями мест у разных народов. Таким образом, в данной статье рассматривается строение каламбура в испанском и узбекском языках, возникновение его как термина, основные причины его активного использования человечеством, этимология каламбура и его специфические особенности.

Ключевые слова: язык; общение; игра слов; контекст; полисемия; юмор; комический жанр; двуязычная культура; омограф; омофон; паронимия; ксеноморф.

Abstract. Debates concerning the language that facilitate the communication among the various peoples and nations of the world have persisted. Many ethnic groups and countries make an effort to indicate the diversity of their original language. It is important to note that there are arguments regarding the potential of the language to infer something about the language's culture through examining the humor subgenres in this society. Kalamburs are one of the genres that best capture the language's versatility, the variety of meanings it may convey, and the context of tradition and culture. Furthermore, scientists have different views about classifying kalambur's, origin and background. As a result, it is feasible to examine a variety of historical instances of the word kalambur. Furthermore, the degree to which the kalambur is actively represented in the language is determined by the existence of multiple historical narratives that associate this word with the names of places across multiple nations. This article deals with the structure of the kalambur in Spanish and Uzbek languages, its emergence as a term, the main reasons for its active use by mankind, the etymology, and its specific features.

Keywords: language; communication; kalambur; context; polysemy; humor; comic genre; bilingual culture; homograph; homophone; paronomasia; xenomorph.

Kirish. Ko'plab xalq va millatlar o'rtasida doim tilning o'rnini va faol qo'llaniladigan tilning boyligi undagi muloqot, ijodiy imkoniyatlari kengligi haqida tadqiqotlar olib borish har bir tilning madaniy va ma'rifiy ilimiy izlanishlarga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Har bir xalq o'z ona tili tarixining kengligini ko'rsatish maqsadida mazkur tilda bor bo'lgan turli xil qadriyatlarni ko'rsatishga intiladi. Har bir tilning moslashuvchanligi, uning xilma-xil ma'no ekvivalentlarga boyligi hamda kontekstida urf-odat,

madaniyatni aks ettiruvchi janrlardan biri bu kalambur janridir. Shuningdek, har bir soʻzning kelib chiqishi, tarixi va uning etimologiyasini tadqiqot darajasida oʻrganmasdan, turli xil fikr bildirish mushkul, albatta.

Asosiy qism. Kalambur (fransuz tilidan — *calembour*) bir kontekstda maʼlum soʻzning turli maʼnolarini yoki turli soʻzlarni va tovush jihatidan oʻxshash iboralarni ishlatadigan adabiy vosita hisoblanadi (4, 59).

Kalamburda ikkita soʻz talaffuz qilinganda boshqa maʼnoni beradi yoki soʻzlardan biri omonimga, baʼzan koʻp maʼnoli shaklda hosil boʻladi. Buning ustiga kalambur taʼsir oʻtkazish uchun soʻzlarni mavhum qiyoslash effektiga ega boʻladi (7, 52).

Hozirda koʻplab tadqiqotchilar kalambur va soʻz oʻyinini sinonim deb hisoblashadi. Kalamburning kelib chiqish tarixi bahs-munozarali savol. Tarixda kalambur soʻzining toʻgʻri yozilishi boʻyicha bir necha xil turlar boʻlgan, masalan: *calambour*, *calembourg*. Bundan tashqari, ushbu soʻzni Germaniyadagi shahar nomi bilan bogʻlaydigan bir qator tarixiy latifalar mavjud. Ular *Kalau*, nemis tilida *Kalauer* xuddi shu maʼnoda. Mazkur shaharda hazillar bilan mashhur boʻlgan nemis pastori Weigand fon Theben, taxminan Martin Lyuter (taniqli katolik monarxi) davrida, keyin shaxsiyati aniq turli shaxslar ijodida qoʻllanilgan: Parijda Lyudovik XIV davrida yoki Lechevildagi Stanislav Leshchinskiy saroyida yashagan Vestfaliyadan graf Kalanber (Kalembur) yoki Kalenberg (Kahlenberg) yoki Parijlik farmatsevt Calanbur (8, 53).

Shuningdek, bu soʻzni italyan tilidagi “*calamo burlare*” — “*qalam bilan hazil qilish*” iborasidan kelib chiqqan deya taʼriflar ham mavjud. Fransuz yozuvchisi, tanqidchi, pedagog, adabiyotshunos va adabiy tarixchi, College de France oliy taʼlim muassasasi professori F. Shall “Qadimgi va zamonaviy Germaniya ocherklari” kitobida, keyinchalik fransuz pozitivist faylasufi, tarixchi, filolog va leksikografi, Didrodan keyingi barcha fransuz olimlari ichida eng qomusiy *Littre dictionnaire* nomi bilan mashhur boʻlgan fransuz, “*Dictionnaire de la langue*” lugʻatining tuzuvchisi E. Littré “Kalambur” soʻzini taxminan 1500-yillarda paydo boʻlgan “Der Pfaffe von Kahlenberg” hazillar toʻplamidan olgan maʼlumotlarga tayanib eʼtirof etadi (6, 891).

Ikkinchi imperiya davrida Parij sahnalarida ijod qilgan fransuz dramaturgi Viktorien Sardu bu soʻzning ildizini dramaturg Lui Fuselye tomonidan tuzilgan qoʻlyozmalar toʻplamida topgan. Fuselye oʻyin-kulgi va qoʻshiqlarning ishqibozi boʻlgan Marselning bosh soliq yigʻuvchisining doimiy mehmoni boʻlgan. Sharye ismli bir abbatdan tashqari, qoʻshiq kuylashni yaxshi koʻradiganlar ham tez-tez ziyofat qilishardi. Tabiat unga na sheʼriy isteʼdod, na ovoz bermadi, shuning uchun u har doim qoʻshiqchilar guruhida jim edi. Bir marta (Fuselierning soʻzlariga koʻra – 1720-yil 26-fevral) u shunchalik xafa boʻldi-ki, u qoʻshiq yozganini va endi uni ijro etishini eʼlon qildi. U uyalib qoʻshiq aytishni boshladi, lekin “*Pleurons tous en ce jour*” “Bugun hammamiz yigʻlaymiz” birinchi bandi umumiy kulgiga sabab boʻldi va ikkinchi misradan keyin “*Du bois de calambour*”

(“Kalambur daraxti”) deya qo‘shiq aytishni butunlay to‘xtatdi. Abbat qofiyadan tashqari misradan hech narsa talab qilinmasligiga ishonib, birinchi kelgan qofiyali so‘zlarni oldi. Bugungi kunda yuqorida tilga olingan daraxt ma‘lum emas, ammo 1783-yilda Moskvada nashr etilgan “Andrey Meyer tomonidan tuzilgan batafsil botanika lug‘ati yoki o‘simlikshunos”da (2-qism, 18-bet) shunday deyilgan:

Kalambur yoki burgut daraxti Hindistondan katta bo‘laklarda olib kelingan yashil va yoqimli hidli qimmatbaho daraxtdir. U har xil shlyapa ishlarida, tasbeh tayyorlashda, shuningdek, soqol olingan suvga yaxshi hid berish uchun sartaroshlar tomonidan qo‘llaniladi. U juda ko‘p yog‘ va tuzni o‘z ichiga oladi, miyani mustahkamlaydi, lekin kamdan kam hollarda tibbiyotda qo‘llaniladi. Uni kamdan kam hollarda dorixonalarda topish mumkin. Shunday qilib, kalambur daraxti mavjud edi, abbat va uning hamrohlari bundan xabardor edilar. Sharye qo‘shig‘ining ta‘siri sezilarli bo‘lib, uning kulgili “kalamburi” asta-sekin mashhur bo‘ldi. Fuselye “so‘z maqolga aylandi” deb ta‘kidlaydi. Muallifning o‘zini “kalambur abbati” deb ta‘riflana boshlandi, “kalambur” so‘zi shunday paydo bo‘ldi (10). XVIII asrning oxiriga kelib “kalambur” so‘zi fransuzcha so‘z deb hisoblana boshlandi.

Ko‘rib turganingizdek, ispan an‘analaridagi kalambur tushunchasining asl ma‘nosi bu atamaning umumiy Yevropa tushunchasiga to‘g‘ri keladi. Kalambur — *so‘z ustida o‘yin* sifatida ta‘riflanadi, uning turli ko‘rinishlarida, birinchi navbatda, noaniqlik yoki asoslangan o‘yin leksema yoki iboralarning noaniqligi. Ispan an‘analarida so‘z o‘yining mumkin bo‘lgan yaratuvchisi deb hisoblangan Markiz de Bièvr bu atamani birinchi navbatda grafik sifatida tushungan.

Tilshunoslik bir yoki bir nechta so‘zlarning boshqa so‘zlar bilan aloqa o‘rnatishi, til o‘yinini yaratish maqsadida so‘zlar Yevropa an‘analariga ko‘ra, so‘z o‘yinlari kabi tushunchalar, atamaning asl fransuzcha ma‘nosida so‘z birikmasi — *mikrob vortspiel*, ispancha *equivoco* va portugалcha *trocadilho*, bir-biriga tenglashtirilishi mumkin. Shuning uchun bunday so‘z birikmasi, turli o‘yin turlarini o‘z ichiga oladigan so‘zlar tushunchasini “makrofigura” deb atash mumkin. Shu jumladan, nutqning noaniqligi, rebuslar, anagrammalar va paronomaziyaga asoslangan (5, 33).

Shuningdek, kalamburni biz omonim yoki polisemiyaning sinonimi deb ta‘rif bersak bo‘ladi. Kalamburda omonimlarning barcha turlari qo‘llaniladi — tovush va imloda bir xil yoki o‘xshash, ammo so‘zlarning ma‘nosida farqlanadi: omonimlar, omofonlar, omograflar, omoformlar. Kalamburlarning so‘z o‘yini, polisemiya va omonimlardan farqi ularning kulgili kontekstda tushunilishi deb ta‘rif bersa bo‘ladi.

Kalambur — bir xil so‘zning turli ma‘nolarini yoki o‘xshash tovush leksemalarini mo‘ljallagan hazil yoki ritorik ta‘sir uchun ishlatadigan so‘z birikmasi. So‘z o‘yinini yaratish usuli va o‘ynaladigan so‘zlar o‘rtasidagi semantik bog‘lanish turiga ko‘ra quyidagi so‘z birikmalari turlarini ajratish mumkin:

1) so‘zning ko‘p ma‘noliligi;

2) ko‘p ma‘nolilikka asoslangan so‘z birikmasi. Ma‘no bilan bog‘liq bir qancha ma‘nolarga ega bo‘lgan leksik birlik ishlatiladi.

Xotin erini mashinasini hayday ko‘rmoqchi bo‘lib o‘tiribdi. Qarasa oyoq tagidagi tepki 2 ta ekan.

— *Men bu mashinani hayday olmayman. Avtomaktabdagi mashinalarda 3 ta tepki bor edi-ku, — debdi xotini asabiylashib.*

Eri unga:

— *Menda **avtomat!** — desa, xotini battar asabiylashib:*

— *Meni qo‘rqitmang!!! — debdi (3).*

Bu yerda so‘z yoki iboralarning fonetik o‘xshashligiga asoslangan o‘yindan foydalanilmoqda. Bu ma‘no jihatdan bog‘liq bo‘lmagan turli leksik birliklarning tashqi (grafik yoki tovush) tasodifidir. Ushbu turdagi so‘zlashuv paronomaziya tushunchasini anglatadi.

*Men kalambur qiroliman. Men **kalamburgerkingman** (2).*

Yevropa mamlakatlarida, xususan, Ispaniyaning o‘zida kalamburdan ko‘pincha yumoristik qo‘shiq matnida yoki she‘riy ko‘rinishda foydalanish urfga kirgan. Tarixdagi eng mashhur she‘riy shakldagi kalambur Fransisko de Kevedo Avstriya qirolichasi Felipe IV ning ikkinchi xotini va Fernando III ning cho‘loq qizi Marianaga bag‘ishlangan:

*Entre el clavel blanco y la rosa roja, su majestad **escoja**. / Entre el clavel blanco y la rosa roja, su majestad **es coja** (14).*

Birinchi jumlada “**escoja**” fe‘li “escojer” fe‘lining uchinchi shaxs birlikdagi tuslangan shakli bo‘lib, “tanlamoq” ma‘nosini bildiradi. Ikkinchi jumlada “**es**” fe‘li “ser” yordamchi fe‘lining uchinchi shaxs birlikdagi tuslangan shakli bo‘lib, undan keyin kelgan “**coja**” sifati — “cho‘loq” degan ma‘noni ifodalaydi.

Birinchi bayonotda Kevedo malikaga faqat ikkita gulni tanlashni taklif qiladi, ikkinchisida u malikaning bir oyog‘i ikkinchisidan qisqaroq ekanligini, ya‘ni cho‘loq ekanligini aniq ko‘rsatadi.

Ispan tilida kalambur qilingan so‘zni jumlaning yozma shaklida aniqlash mumkin. Ya‘ni talaffuzda, og‘zaki nutqda har ikkala ma‘no bildiruvchi so‘z bir xil talaffuz qilinadi. Quyida shunday misollarni ayrimlarini ko‘rib chiqish mumkin:

*Si yo **lo quito**, ella **lo caza**. / Si yo (soy) **loquito**, ella **locaza**.*

Tarjimasi:

*Agar men **buni yechsam**, u **uning ketiga tushadi** / Agar men **aqldan ozgan bo‘lsam**, u ham **aqldan ozgan**.*

*¡**Ave! César de Roma**. / **A veces arde Roma**.*

Tarjimasi:

Ave! Rimlik Sezar/ Ba‘zan Rim yonadi.

Ispan yumoristik janrida aynan shu kabi mexanizm qo‘llanadigan kalamburlar juda ko‘pchilikni tashkil etadi. O‘zbek latifalarida esa bu jihatni uchratish qiyin. Bu turdagi kalambur ko‘proq ispan tiliga xos xususiyat ekanligini ko‘rish mumkin.

Shu o‘rinda ispan tilida fe‘llarning tuslanishi va olmoshlar bilan bog‘liq so‘z o‘yini natijasida shakllangan ko‘plab kalambur evaziga latifalar tashkil topishi mumkinligiga alohida ahamiyat berish

lozim. Ispan tilidagi “su” olmoshi 3-shaxs birlikda “sizning” va “uning” degan ma’nolarni ifodalaydi. Fe’llar tuslanganda ham “siz” va “u” olmoshlari uchun 3-shaxs birlikdagi tuslanish shakliga ega bo’ladi. Misolda ko’riladigan bo’lsa, “Jose toma su coche” so’zini “Jose o’zining mashinasini” ma’nosida ham yoki “Jose sizning mashinangizni mindi” ma’nosida ham tushunish mumkin. Bu kabi holatlarga aniqlik kiritish uchun ispanlar jumlada “de” ko’makchisi va “usted-siz” olmoshini birga qo’llanilishi natijasida “de usted-sizning” ma’nosini beruvchi so’zlar orqali jumlagi aniqlik kiritiladi. Ya’ni “Jose toma su coche de usted-Jose sizning mashinangizni mindi”. Ushbu holatni quyidagi anekdot misolida ko’rish mumkin:

El director general de un banco se preocupaba por un joven director Estrella que después de un período de trabajar junto a él, sin parar nunca, ni para almorzar, empieza a ausentarse al mediodía. Entonces el director general del banco llama al detective privado del banco y le dice:

— *Siga a López una semana entera, no vaya a ser que ande en algo malo o sucio”.*

El detective cumple con el cometido, vuelve e informa:

— *“López sale normalmente al mediodía, toma su coche, va a su casa a almorzar, luego le hace el con su mujer, se fuma uno de sus excelentes habanos y vuelve a trabajar”.*

Responde el director:

— *“¡Ah, bueno, menos mal, no hay nada malo en todo eso!!!!”*

Luego el detective le dice:

— *Creo que no me entendí señor ¿Puedo tutearlo?*

Sorprendido, el director responde:

— *“Sí, cómo no”*

Y, entonces, el detective le dice:

— *Te repito:*

*“López sale normalmente al mediodía, toma **tú** coche, va a **tú** casa a almorzar, luego le hace el amor a **tu** mujer, se fuma uno de **tus** excelentes habanos y vuelve a trabajar” (12).*

Bank bosh direktori Estrella ismli xodimdan xavotirda edi, u bir muncha vaqt birga ishlagandan so’ng, tushlik vaqtida emas, peshin vaqtida yo’q bo’lishni boshlaydi. Shunda bank bosh direktori bankning shaxsiy detektiviga qo’ng’iroq qiladi va shunday deydi:

— “Lopesni bir hafta davomida kuzatib boring, u hech qanday yomon yoki iflos ish qilmayabdimikin”.

Detektiv topshiriqni bajaradi, qaytib keladi va hisobot beradi:

— “Lopes odatda peshin vaqtida jo’naydi, mashinasiga o’tiradi, tushlik qilish uchun uyga ketadi, keyin xotini bilan don olishadi, o’zining ajoyib sigaralaridan birini chekadi va ishga qaytadi”.

Direktor javob beradi:

— E, mayli, xudoga shukur, buning yomon joyi yo’q!

Keyin detektiv dedi:

— Meni tushunmayapsiz shekilli, senyor. Men sizga sen deb murojat qilsam bo’ladimi?

Hayron bo’lgan direktor javob beradi:

— “Ha, albatta!”

— Qaytaraman:

“Lopes odatda peshin vaqtida jo‘naydi, sening mashinangga o‘tiradi, tushlik qilish uchun sening uyingga ketadi, keyin xotining bilan don olishadi, sening ajoyib sigaralarindan birini chekadi va ishga qaytadi”.

Shuningdek, kalambur topishmoqlarda ham qo‘llaniladi. Bunday holatlarda asosan tilning xususiyatidan kelib chiqqan topishmoq shakllanishi mumkin.

¿Qué es blanco por dentro y verde por fuera?

Tarjima:

Ichi oq va usti yashil narsa nima?

Javob: *Si quieres que te lo diga es pera*

Tarjima:

Senga buni aytishimni xohlasang bu — nok.

Bu yerda **–es–** ispan tilidagi bo‘lmoq yordamchi fe‘lining 3-shaxs birlikda tuslangan shakli hamda **–pera–** nok degan ma‘noni ifodalaydi. Ammo talaffuz qilinganda **es** va **pera** so‘zlarini qo‘shilish holatida ush **–espera–** ya‘ni **esperar - kutmoq** so‘zining 2-shaxs birlikda buyruq maylida tuslangan shakli bilan bir xil eshtilishi hamda javobning ma‘no jihatidan aynan shu so‘zni ishlatishga ham moyilligi natijasida so‘z o‘yini shaklidagi holat yuzaga keladi. Ya‘ni “*Si quieres que te lo diga espera– Senga buni aytishimni xohlasang kutib tur*” shaklida tushunish ham mumkin.

¿Qué le dijo una gansa a otra gansa?

Tarjima:

Bir g‘oz boshqa g‘ozga nima dedi?

Javob: *Vengansa*

Tarjima:

Qasos

Ushbu misolda topishmoq javobida yuqoridagi misolning aksini ko‘rish mumkin. **Vengansa** so‘zining birinchi bo‘g‘ini **ven** buyruq maylidagi **venir-kelmoq** fe‘lining 2-shaxs birlikda tuslangan shakli hamda qolgan qismi **–gansa-g‘oz** ma‘nosini ifodalashini inobatga olsak, “*Ven gansa- g‘oz kel*” shaklida tushunish ham mumkin.

Ispan yoki Yevropa madaniyatida kalambur janri dastlab qo‘shiq va sheriy ko‘rinishda paydo bo‘lib shakllangan. O‘zbek madaniyatida ham tuyuq janrida metafora shaklida so‘z o‘yini qo‘llanganligini ko‘rish mumkin.

Tuyuq — lirik janr. Tuyuq adabiy va forsiy adabiyotda mavjud emas. Turkiy she‘riyatga xos bo‘lgan janr hisoblanadi. Turkiy xalqlar og‘zaki adabiyoti ta‘sirida shakllangan. Tuyuq 4 misradan iborat bo‘lishi kerak. Tuyuqlar ruboiy kabi a-a-a-a va a-a-b-a tarzida qofiyalanadi. Tuyuqda qofiyaga olingan so‘zlar tajnisli bo‘lishi kerak, ya‘ni omonim yoki shakldosh so‘zlar turkumidan tashkil topgan bo‘lishi lozim.

Tuyuq lirik janrining ikki, uch, yoki to‘rt misrasi oxirida tajnis san‘ati hosil qiladigan so‘zlar yoki so‘zlar turkumi qo‘llangani uchun shuning o‘zi qofiya o‘rniga o‘tadi. Og‘zaki she‘riyatimizda barmoq

vaznining o'n bir bo'g'inli, ya'ni olti va besh bo'g'inli turoqlardan iborat she'rlar ko'p uchrab turadi.

Turkiy she'riyatda bir qancha shoirlar tuyuq yozgan.

Bormog'in

Necha dedim ul sanamg'a: "Bormog'in",

Qilmadi ul tark oxir Bormog'in.

Munchakim xudroyliq ko'rguzdi ul,

Aql hayrat qildi, tishlab Bormog'in.

"Bormog'in" tajnisli tuyug'i Alisher Navoiyning "Badoye ul-vasat" devonidan olingan. Alisher Navoiy barcha tuyuqlarini jamlab shu devonga jamlagan va devonda 13 ta tuyuq bor. Turkiy she'riyatida Lutfiy ham tuyuq yozgan.

Lutfiy ijodidan tuyuq janri

Bandamen

Men sening ilkingdin, ey dil, Bandamen,

Vah, qachon yetkaymen ul dilbanda men.

Bevafolarg'a meni qilding asir,

Sen menga sultonsen, ey dil, banda - men.

Tajnisi "dil va Bandamen" so'zlari.

Birinchi misradagi "dil Bandamen" — yurak, bandaman.

Ikkinchi misrada "dilbanda men" — dilbandga men.

To'rtinchi misrada "dil, banda men" — yurak, qul — men.

Ko'rinib turibdiki, ushbu tuyuq tajnisli tuyuq. Tuyuqlardan namunalar eng oldi o'zbek shoirlari qalamiga mansub (13).

Zamonaviy tuyuqlarga misollar:

Muhabbat ramzidir qadimdan **olma**,

Senga deb tutaman rad etma, **ol, ma**.

Qattiq sevganimdan qarshingda lolman,

Go'ng-soqov ekan deb, ko'nglinga **olma**.

Omonulloh Mutal

Seni jon dilmdan "**jonona**" deyman,

"Jonona" demasdan, "**jono, na**" deyman?

Lek ikki ayol bor sendan ham aziz,

Har birin ardoqlab: "**jon ona**", deyman!

Iqbol Nazariy

Tuyuq janrida so'z o'yini keng qo'llaniladi, ammo u kulgu uyg'otish maqsadida qo'llanmaydi.

O'zbek madaniyatida kalambur (so'z o'yini) hajviy janrlar orasida askiya janrida keng qo'llaniladi. Bu holat asosan kontekstda yashirin ma'noli metafora asosida yasaladi. Ba'zi bir fe'llarning to'ldiruvchisiz kelishi va ushbu fe'llarning yashirin ma'nosi (qilmoq, olmoq, itarmoq, ezmoq, bosmoq, bermog, ...) kontekstga mos kelishi kulgu uyg'otadi.

Misol:

Teshavoy: Men sizni Materatsiga o'xshatdim.

Boltavoy: Materatsi bo'lganimda nima qilar edingiz?

Teshavoy: Zidan bo'lib ko'kragingizni poylar edim.

Boltavoy: Men sizni gol urgan futbolchiga o'xshatdim.

Teshavoy: Gol urgan futbolchi bo'lsam nima qilar edingiz?

Boltavoy: Gol urganingizdan keyin o'n kishi ustingizga chiqib rosa bosar edik.

Xulosa. Yuqorida ispan va o'zbek madaniyatida kalamurning omograf, omofon, paronomaziya ko'rinishlarida hosil bo'lishini hamda tahlillarini ko'rish mumkin. Kalamur ularning kulgu uyg'otuvchi mazmundagi ko'rinishi bo'lgan ksenomorf janrdir. Ksenomorf janr sifatida kalamur G'arbda, xususan, ispan madaniyatida she'riy, qo'shiq ko'rinishida hamda latifa va topishmoq latifalarda qo'llaniladi. O'zbek madaniyatida she'riyat go'zallik va falsafiy fikrlarning ifodalanishini ko'proq maqsad qilgani bois hajviy ma'no bilan ifodalanish holati deyarli mavjud emas. Tuyuqlarda ham biz so'z o'yini ishtirokini kuzatsak ham, ularda kulgu uyg'otuvchi xususiyati o'tkir ifoda etilmaganini ko'rish mumkin. Kontekstda yashirin ma'noli metafora asosida fe'llarning to'ldiruvchisiz kelishi va ushbu fe'llarning yashirin ma'nosi orqali askiyalar shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy tuyuqlari "Tuyuq". — URL: <https://sirlar.uz/alisher-navoiy-tuyuqlari/>
2. Xarlamov. Rossiyalik qiziqchi, aktyor chiqishlaridan. — URL: <https://www.youtube.com/shorts>.
3. Latifalar, hajviyalar, xandalar, hazillar, prikollar va anekdotlar. — URL: <https://latifa.uz/?page>
4. Санников В. З. Каламбур как семантический феномен // Вопросы языкознания. — № 3. — 1995. — С. 59.
5. Дзюба А.В., Урбина Р.Ф. Понятия «каламбур» и «calambur» в отечественной и испанской лингвистике: сопоставительное исследование // Филологические науки. — № 4. — 2018. — С. 31–38.
6. Каламбур Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: Всего томов 86. — М.: Семеновская Типолитография. — С. 890.
7. Каламбур Архивная копия. 2008 на [Wayback Machine]. Литературная энциклопедия: В 11 т. Т. 5. — М.: 1931. — С. 52–53.
8. Каламбур Архивная копия. 2008 на [Wayback Machine]. Литературная энциклопедия: В 12 т. Т. 5. — М.: 1931. — С. 60–64.
9. Каламбур. Национальная энциклопедия. — Алматы: Қазақ энциклопедиясы, Казахстан. 2005.
10. Сборник изречений, метких мыслей, острых слов и анекдотов всех времен и народов. — СПб. 1903.
11. Переиздание: Всемирное остроумие. Сборник изречений, метких мыслей, острых слов и анекдотов всех времен и народов. — Дубна: ИЦ «Феникс», 1995. — С. 384.
12. <http://nayazyke.ru/puro-espanol/>
13. <https://sirlar.uz/alisher-navoiy-tuyuqlari/>

14. <https://www.ejemplos.co/calambur/#ixzz8BVdMLuxn>

References

1. <https://sirlar.uz/alisher-navoiy-tuyuqlari/>.
2. <https://www.youtube.com/shorts>.
3. <https://latifa.uz/?page>
4. Sannikov V.Z. *Questions of linguistics*, No. 3, 1995, P. 59.
5. Dzyuba A.V., Urbina R.F. *Philological sciences*, No. 4, 2018, pp. 31–38.
6. Kalambur Encyclopedic Dictionary of Brockhaus and Efron: In 86. M.: Семеновская Типолитография, p. 890.
7. *Kalambur Archive copy*. 2008 on [Wayback Machine]. Literary encyclopedia: In 11 volumes.vol. 5, 1931, P. 52–53.
8. *Kalambur Archive copy*. 2008 on [Wayback Machine]. Literary encyclopedia: In 12 volumes, Vol. 5, 1931, P. 60–64.
9. Kalambur. *National Encyclopedia*, Almaty: Kazakh encyclopedias, Kazakhstan. 2005.
10. *Сборник изречений, метких мыслей, острых слов и анекдотов всех времен и народов* (A collection of sayings, apt thoughts, sharp words, and anecdotes from all times and peoples), St. Petersburg, 1903.
11. *Переиздание: Всемирное остроумие. Сборник изречений, метких мыслей, острых слов и анекдотов всех времен и народов* (A collection of sayings, apt thoughts, sharp words, and anecdotes from all times and people), Dubna: IC Phoenix, 1995, P. 384.
12. <http://nayazyke.ru/puro-espanol/>
13. <https://sirlar.uz/alisher-navoiy-tuyuqlari/>
14. <https://www.ejemplos.co/calambur/#ixzz8BVdMLuxn>